XALQ DEPUTATLARI QUYICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-20-108-10-140-K/25 Quyichirchiq tumani

Quyi Chirchiq tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalari, Byudjet kodeksining 27,99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 1119-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Quyi Chirchiq tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **109,6 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **109,6 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **474,2 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. 2026 yil uchun Quyi Chirchiq tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori 1-ilovaga, 2026 yil uchun Quyi Chirchiq tuman

mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga, Quyi Chirchiq tumani 2026 yil uchun ajratma me’yorlari 3-ilovaga, Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari 4-ilovaga, Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar (qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi) 5-ilovaga, Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 6-ilovaga, Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar 7-ilovaga, 2026-yilda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 8-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1,4 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari K.Uskanbayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Isroilov), tuman soliq inspeksiyasi (U.Atabayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Tuman hokimining matbuot kotibi - Axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (A.Ismatillayev) hamda tuman “Erkin so‘z” gazetasi bosh muharriri (P.Ergasheva) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari, gazeta va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish vazifasi yuklansin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy isloxatlar bo‘yicha doimiy komissiyasi Sh.Ibashovga ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari K.Uskanbayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XOLMURADOV AKMAL ARSLANOVICH**

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Quyi Chirchiq tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming,so‘mda

№	Daromad turlari	Quyichirchiq tumani
	JAMI	**109 559 340**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 641 100
2	Foyda solig‘i	469 380
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 114 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 552 300
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 623 000
	Aksiz solig‘i jami	7 728 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*7 728 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 357 150
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	8 334 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	43 749 910
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 829 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	829 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 278 400
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	5 144 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-2 057 600
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	705 900
15	Yig‘imlar	233 000
16	Jarimalar	1 011 200
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	104 000

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Quyi Chirchiq tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Quyichirchiq tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**109 559 340**
1	**Hokimiyat**	***34 753 079***
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 992 004*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 087 821*
	Zahira jamg‘armasi	*1 353 790*
2	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	***2 427 679***
3	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	***1 099 646***
4	**Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi**	***27 429 954***
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 213 600*
5	**Madaniyat bo‘limi**	***2 438 751***
6	**4-sonli bolalar musiqa va sa’nat maktabi**	***4 833 916***
7	**21-sonli bolalar musiqa va sa’nat maktabi**	***2 943 643***
8	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	***2 886 560***
9	**1-sonli sport maktabi**	***4 699 201***
10	**2-sonli sport maktabi**	***3 093 900***
11	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	***2 600 515***
12	**Irrigatsiya bo‘limi**	***1 247 945***
13	**Axborot-kutubxona markazlari**	***594 828***
14	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**18 509 723**

	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Quyi Chirchiq tumani 2026-yil uchun ajratma me’yorlari

foizda

Hududlar nomi			**Quyichirchiq tumani**
QQS	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Foyda solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	51%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	97%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga		100%
Davlat boji	Tuman (shahar)lar byudjetiga		10%
Jarima	Tuman (shahar)lar byudjetiga		16%
Yig‘imlar	Tuman (shahar)lar byudjetiga		20%

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Quyichirchiq tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar
(qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Quyichirchiq tumani	1,15	1,17	1,20	1,20	1,15	1,17	1,20	1,20

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman va shaharlarnomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Quyichirchiq tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,35	1,35

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Quyichirchiq tumani	1,00	1,00

* Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi KenGESi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-108-10-140-K/25 -son qaroriga
8-ilova

2026-yilda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

№	Hududlar bo‘yicha jami	2026-yil
1	Quyichirchiq tumani	474 156